



SABZI NAVLARINING BARG SATXI TO'PLASHIGA MINERAL O'G'ITLARNING TA'SIRI

H.R.Yusupov, q.x.f.f.d. (PhD) - Urganch Davlat Universiteti

*L.R.Bekchanova – Urganch Davlat Universiteti Biologiya yo'nalishi
magistranti*

Аннотация: В данной статье изучено влияние минеральных удобрений на формирование листовой поверхности сортов моркови «Нурли-70», «Мирзойи Сарык» и «Мирзойи Кызыл», выращиваемых в почвенно-климатических условиях Хорезмской области.

Ключевые слова: Варианты, сорт, Нурли-70, Мирзой желтый, Мирзой красный, листовая поверхность, ФАР, листовая поверхность, период технического созревания, сбор урожая.

Fotosintez o'simliklar hayotida eng muhim asosiy biokimyoviy jarayon bo'lib, biologik energiyaning asosiy ta'minotchisi hisoblanadi. O'simliklarning barglari tashqi muhit omillari, yorug'lik, namlik va haroratni birinchi bo'lib qabul qiladi va yorug'lik ular orasida eng asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun ham o'simliklarning barg yuzasining sathi qancha yirik bo'lsa u kelayotgan quyosh energiyasini shuncha tez o'zlashtiradi. Buning natijasida mahsuldor a'zolari rivojlanishi tezlashadi va yiriklashadi.

Ekinzor FARni yutadigan optik tizimdan iborat. Dastlabki rivojlanish davrida o'simlikning assimmilyatsion yuzasi kam bo'lishi tufayli FAR ning ko'p qismi barglar tomonidan yutilmaydi. Barglar yuzasining ortib borishi bilan barg indeksi 4...5 ga yetganda bir gektarda 40...50 ming m² barg yuzasi hosil bo'ladi va Far ning barglar tomonidan yutilishi maksimal darajaga 75-80% yoki umumiy radiasiyaning 40% iga yetadi. Barglar yuzasining yanada oshishi FAR yutilishini oshirmaydi.

Barglarning yuzasi ekinzorda asta-sekin oshib boradi. Dastlab bargyuzasi sekin (maysalashda) keyin tez (tuplanish, naychalash) oshadi va boshoqlash fazasidan



keyin pastki barglarning sarg‘ayishi va nobud bo‘lishi bilan kamayib boradi, O‘suv davrining oxirida yashil barglar o‘simlikda bo‘lmaydi. Demak, yuqorida keltirilgan sharhdan ma’lum bo‘lishicha, barg sathining normal darajada bo‘lishi FARning yutilishini 75-80% gacha borishini ta’minlasada, ammo barg sathining yanada yuqori bo‘lishi FARning yuqori darajada yutilishini bildirmaydi.

Biz ham tadqiqot olib borgan 2023-2024 yillar davomida sabzi yetishtirishda ma’danli o‘g‘itlarni qo‘llash me’yorlari bo‘yicha variantlar kesimida parvarish qilinayotgan sabzi navlarini barg sathining shakllanishi rivojlanish fazalari kesimida aniqlab borildi.

Olingen ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, sabzi navlari barg sathi tahlil qilinganida ma’danli o‘g‘itlarni qo‘llash me’yorlari kesimida katta farqlar kuzatilganligi ma’lum bo‘ldi.

Jumladan sabzining Nurli-70 navini o‘g‘it me’yorlari azot-200, fosfor-120, kaliy-90 qilib berib yetishtirganimizda sabzi 2 ta barg chiqarganida barg satxi xisoblanganda gettariga $3,0 \text{ m}^2$, 5 ta barg chiqarganida $9,0 \text{ m}^2/\text{ga}$, 7 ta chin barg chiqarganida $14,8 \text{ m}^2/\text{ga}$ texnik yetilgan davrida o‘lchanganida $20,2 \text{ m}^2/\text{ga}$ ni tashkil qildi.

1-jadval

Sabzi navlarining o‘suv davridagi barg yuzalari sathining ming. m^2/ga o‘rtacha 2022-2023 yy.

№	Navlar	O‘g‘it me’yorlari	O‘sish bosqichlari			
			2 ta barg	5 ta barg	7 ta barg	texnik yetilish davri
1	Nurli-70	N200, P120 K90	3,0	9,0	14,8	20,2
2		N250, P150 K120	3,5	10,6	17,2	25,5
3	Mirzoyi sariq	N200, P120 K90	3,1	7,7	11,3	19,2
4		N250, P150 K120	3,4	9,8	15,4	23,0
5	Mirzoyi qizil	N200, P120 K90	2,7	6,2	12,2	17,0
6		N250, P150 K120	2,6	6,0	12,5	16,7



Nurli-70 sabzi navini o‘g‘it me’yorini oshirib berganimizda yani azot-250, fosfor-150, kaliy-120,kg/ ga yetishtirganimizda barglarning biroz uzun bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin, 2ta barg chiqarganda $3,5 \text{ m}^2/\text{ga}$, 5ta barg chiqarganida $10,6 \text{ m}^2/\text{g}$, 7 ta barg chiqarganida $17,2 \text{ m}^2/\text{ga}$, texnik yetilgan davrda o‘lchanganida esa $25,5 \text{ m}^2/\text{ga}$ ni tashkil qildi.

Sabzining Mirzoyi sariq navini o‘g‘it me’yorlari azot-200, fosfor-120, kaliy-90 qilib berib yetishtirganimizda sabzi 2 ta barg chiqarganida barg satxi xisoblanganda gektariga $3,1 \text{ m}^2$, 5 ta barg chiqarganida $7,7 \text{ m}^2/\text{ga}$, 7 ta chin barg chiqarganida $11,3 \text{ m}^2/\text{ga}$ texnik yetilgan davrida o‘lchanganida $19,2 \text{ m}^2/\text{ga}$ bo‘lganligi kuzatildi.

Mineral o‘g‘itlarning oshirilishi Mirzoyi sariq navining xam barg satxining oshishiga olib keldi yani o‘g‘it me’yori kamaytirilgan variantga nisbatan 2 ta barg chiqarganida $0,3 \text{ m}^2/\text{ga}$, 5 ta barg chiqarganida $2,1 \text{ m}^2/\text{ga}$, 7 ta barg chiqarganda $4,1 \text{ m}^2/\text{ga}$, texnik yetilgan davrida $3,8 \text{ m}^2/\text{ga}$ yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Tajribamizda qatnashgan sabzining yana bir Mirzoyi qizil navida barg satxi o‘lchanganda barglar bir muncha qisqa ekanligi kuzatilib mineral o‘g‘itlar kamaytirilgan fonda parvarishlanganda 2 ta barg chiqarganida barg satxi xisoblanganda gektariga $2,7 \text{ m}^2$, 5 ta barg chiqarganida $6,2 \text{ m}^2/\text{ga}$, 7 ta chin barg chiqarganida $12,2 \text{ m}^2/\text{ga}$ texnik yetilgan davrida o‘lchanganida $17,0 \text{ m}^2/\text{ga}$ bo‘lib Nurli-70 navining shu fondagi o‘g‘it me’yorida parvarishlangandagiga nisbatan mos ravishda 0,3; 2,8; 2,6; 3,2 m^2/ga kam, Mirzoyi sariq naviga nisbatan 0,4; 1,5; +0,9; 2,2 m^2/ga kam bo‘ldi.

Mirzoyi qizil navida o‘git me’yorini ko‘paytirganimizda xam yuqoridagi qonuniyat saqlanib qolganligi kuzatildi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Sabzi navlarining barg satxi rivojlanishiga har bir navning biologik morfologik tuzulishi bilan farqlanib, madanli o‘g‘itlarning oshib borishi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan holda yer ustki va yer ostki vegetativ qisimlarining rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazganligini ushbu tadqiqotimizda o‘z isbotini topganligi aniqlandi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Balashev N.N, Zeman.G.A. Ildizmevali sabzavotlar. Sabzavotchilik- kitobi:
O‘zbekiston – 1981. B. 330-334.